



XORIJIY TAJRIBA ALMASHINUVLARINING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI

Yusupova Sayyora Xasanovna
Shayxontohur tuman politexnikumi
maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xalqaro tabriba almashish, uning ta'lim jarayoniga ta'sirlari, xalqaro talablar va ularning ahamiyati haqida ma'lumotlar yoritilgan. Shuningdek, Belorusiyaning Minsk shahridagi «Minsk davlat moda industriyasi» kollejida amalga oshirilgan amaliyot dasturi haqida batafsil yozilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, bilim, tajriba, amaliyot, almashinuv, dastur, Belorusiya, Minsk shahri, kadr, pedagog, xorijiy tajriba.*

Keyingi yillarda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jamiyat hayotining barcha sohalariga yangicha innovatsion yondashuvlar, mavjud qarashlar, tushunchalar va muno sabatlarni taraqqiyot ko'zgusi va samaradorlik mezonlari bilan qayta ko'zdan kechirishni taqozo etmoqda. Istiqlool yillarida ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirilganini ta'kidlagan holda, aytishimiz joizki, maqsadlar va ularga erishish usul va vositalarini aniq belgilay olmaslik, mehnat bozori talablarini chuqur o'rganmaslik, undagi talab va taklifning nomuvofiqligi, odamlarning ijtimoiy ahvoli va xohish-istaklarini inobatga olmaslik oqibatida anchagina jiddiy xato va kamchiliklar ham kuzatildi. Darhaqiqat, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev so'nggi yillarda ta'lim sohasini isloh qilishga, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan takomillashtirishga, xususan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etishga jiddiy e'tibor qarata boshladi [1]. Bu boradagi islohotlar 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 22-maydagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarorlarida o'z aksini topgan. E'tibor beradigan bo'lsak, mazkur qarorlarda uzluksiz ta'lim tizimining deyarli barcha turlari qamrab olinganligini ko'rishimiz mumkin. Qolaversa, "O'zbekiston-2030 Strategiyasi"da ham ta'lim sohasini tubdan takomillashtirishga e'tibor qaratilgan. Ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan mazkur hujjatlarning barchasida sohaga innovatsiyalarni kiritish, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog'liq umumiy jihatlar mavjud. Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma'qullanmoqda:

1. Faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi).
2. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (radikal, modifikasiyalangan, kombinasiyalangan).





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

3.O'zgarishlar ko'lamiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli).

4.Kelib chiqish manbayiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Yusupova Sayyora Xasanovna joriy yilning 31-martidan 7-apreliga qadar hamkasblarim bilan Belarus Respublikasi Minsk shahriga tashrif buyurib, «Minsk davlat moda industriyasi» kollejida malaka oshirdik. Kollejdagi Olga Vadimovna va Tatyana Vladimirovna yordamida o'quv jarayoni bilan tanishib, undagi o'quv xonalari, avtomatlashtirilgan tikuv mashinalari, 4 ipli-«GLOBAL» yurmalash mashinasi»da, «SENTEX» , «MAUSER spezial» – bir chokli yarim avtomat universal tikuv mashinalarida, hamda vishevka-tikuv mashinasida, avtomatlashtirilgan cho'ntak tikuvchi mashinasida, izma tikuvchi mashinalarida amaliyot o'tadim.


Dars jarayonlarini, tikuvchilik amaliyoti xonalaridagi jarayonni kuzatdim: o'quvchilar qiziqishi, model yaratish jarayoni, modellashtirish, manikenda bulavka asosida maketlash usullari kuzatib hamkasblarim bilan o'zaro fikr almashdim. Konstruktsiyalash va modellashtirish o'quv xonasida «Avto Kroy SAPR metodikasi» bo'yicha kompyuterda o'lchamlar asosida tipovoy figura asos bazasida konstruktsiyalash va modellashtirish, andaza tayyorlash va ploter mashinasida andazani matoga joylashtirish usullarini ustozlar bilan birgalikda amalda bajardim.

Men malaka oshirishda «Minsk davlat moda industriyasi» kolleji ustozlari:

- N.V. Soloduxo «Konstruirovanie i modelirovanie shveynix izdeliy», -T.A.Kireva «Modelirovanie odejdi metodom nakolki» kitobi va o'quv qo'llanmasini o'quv jarayonida qo'llanilishi samara berayotganini guvohi bo'ldim. Bu davrda bir qancha kasbdoshlar bilan tanishdim, o'z fikr –mulohazalarimiz bilan fikr almashdik.



Innovatsiyaning maqsadi - sarflangan mablag' yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli — tuman o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yangiliklardan farqli o'laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmini tashkil etadi. Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Shu sababli “novatsiya” va “innovatsiya” tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun islohat faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lam asos bo'lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan bo'lamiz. Agar





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o'zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz.



Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, biz o'qituvchilar xorijiy tajribalarni o'rganishimiz, ularni kelajakda o'z yurtimizda qo'llashimiz yoki o'quvchilarga o'rgatishimiz bu kelajak uchun qo'yilgan dadil qadamlardandir. Samarali ko'zlangan va o'ylangan rejalar asosida tajriba almashinuv dasturlarini kengroq doirada olib boorish, o'quvchilarning ham talaba almashinuv doirasida Belorusiyaning Minsk shahrida amaliyot o'tab kelishlariga zamin yaratish kerak deb o'ylayman. Shuningdek ular olgan bilimlar va tajribalar kelajakda vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shishlarida zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T: O'zbekiston, 2017. 104 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi - Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarida faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risidagi PQ-3775-sonli qarori.
3. Muxtorov A., Sultonov T., Mustafakulov Sh.I. Ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar Iqtisodiyot va innovacion texnologiyalar. 2012. 4. 9 b.
4. Samiyeva S. Этапы развития педагогического творческого мастерства преподавателей высшей школы //центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2023. – T. 31. – №. 31.
5. Yo'ldoshev J.F. Xorijda ta'lim (metodik qo'llanma) - Toshkent: 1995- yil
6. Ikromov A.B., Mxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta'lim, ilm fan (metodik qo'llanma. Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.
7. G.Anorqulkova, A. Karimov. Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xos yo'nalishi uslub va tahlili. Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son.
8. A.Nosirov. Fransiyada talim sifati qanday nazorat qilinadi? -, Boshlang'ich ta'lim“ jurnali. 2019- yil. 12- son.
9. R.Ilashova. Amerika maktablarida.- , Boshlang'ich ta'lim” jurnali. 2019- yil. 3-son.

